

**BODOMSIMON BEZLARNING AUTOIMMUN YALLIG'LANISHI: KLINIK VA
PATOGENETIK XUSUSIYATLARI**

Xamroeva Umida Raximovna

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti,
Otorinolaringolog.

[**https://doi.org/10.5281/zenodo.17052067**](https://doi.org/10.5281/zenodo.17052067)

Kirish

Otorinolaringologiya va klinik immunologiyada bodomsimon bezlarning surunkali yallig'lanishi keng tarqalgan patologiya hisoblanadi. So'nggi yillarda ushu kasallikning autoimmun mexanizmlar bilan bog'liqligi alohida ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Autoimmun tonsillit (AIT) immun tizimining o'z limfold to'qimalariga nisbatan toleransianing buzilishi natijasida rivojlanadi. Bu holatda bodomsimon bezlarda davomli yallig'lanish jarayoni kuzatilib, u nafaqat mahalliy, balki butun organizmning immunologik disbalansiga olib keladi.

Autoimmun yallig'lanishning patogenezi T-limfotsitlar faolligining buzilishi, autoantitanachalar hosil bo'lishi va yallig'lanish mediatorlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan tavsiflanadi. Natijada limfold to'qimalarda doimiy antigen-antitelo reaksiyalari yuzaga kelib, morfologik o'zgarishlar shakllanadi.

Maqsad

Bodomsimon bezlarning autoimmun yallig'lanishida klinik simptomatika, laborator ko'rsatkichlar, patogenetik mexanizmlar va davolash tamoyillarini tahlil qilish.

Materiallar va usullar

Mazkur tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Klinik kuzatuvlar asosida 20–45 yosh oralig'idagi surunkali tonsillit tashxisi qo'yilgan bemorlarning anamnez, laborator ko'rsatkichlari va instrumental tekshiruv natijalari baholandi.

Natijalar

Tahlil natijalariga ko'ra, autoimmun tonsillitda quyidagi klinik belgilar kuzatildi:

- tez-tez angina qaytalanishi;
- bo'yin limfa tugunlarining kattalashishi;
- farinoskopyada bodomsimon bezlarda giperemiya, follikulyar o'zgarishlar va chandiqli infiltratlar;
- umumiy holsizlik, subfebril harorat va bosh og'rig'i.

Laborator belgilar:

- Anti-streptolizin-O (ASL-O) yuqori ko'rsatkichlarda;
- revmatoid faktor mavjudligi;
- autoantitanachalar (ANA, anti-DNK) aniqlanishi;
- ECHT va leykotsitoz ko'tarilgan.

Asoratlar:

- revmatizm va miokardit;
- glomerulonefrit va nefropatiya;
- endokardit va boshqa sistemik autoimmun kasalliklar.

Ushbu ma'lumotlar bodomsimon bezlarning oddiy surunkali yallig'lanishi bilan autoimmun jarayonlar o'rtaida yaqin bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

Xulosa

Autoimmun tonsillit – klinik jihatdan turlicha namoyon bo'ladigan, ammo og'ir sistemik asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan patologik jarayondir. Kasallikning erta tashhisи, immunologik markerlarni aniqlash, zamonaviy immunomodulyator, antibakterial terapiya va zarurat tug'ilganda – tonzillektomiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autoimmun tonsillitni faqat mahalliy yallig'lanish kasalligi sifatida emas, balki butun organizmning immun tizimi bilan bog'liq kompleks muammo sifatida o'rGANISH lozim. Shu sababli ushbu yo'nalishda qo'shimcha fundamental va klinik tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Kumar V., Abbas A.K., Aster J.C. *Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease*. 10th ed. Philadelphia: Elsevier; 2021.
2. Brook I. The role of anaerobic bacteria in tonsillitis. *International Journal of Pediatric Otorhinolaryngology*. 2005;69(1):9–19.
3. Ardehali M.M., Emami A., Rezaei N. Autoimmunity in chronic tonsillitis. *American Journal of Otolaryngology*. 2010;31(6):401–406.
4. Çolak A., et al. Autoimmune mechanisms in recurrent tonsillitis: a clinical and immunological study. *European Archives of Oto-Rhino-Laryngology*. 2016;273(9):2731–2737.
5. Shulman S.T., Bisno A.L. Clinical practice guidelines for the diagnosis and management of group A streptococcal pharyngitis. *Clinical Infectious Diseases*. 2012;55(10):1279–1282.
6. Чернушенко Е.Ф., Воложин А.И. *Клиническая иммунология и аллергология*. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
7. Турғунов Б., Содиков У. Surunkali tonsillitning immunologik xususiyatlari. *Tibbiyotda yangi kun*. 2021;3(35):112–117.